OLIY TA’LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI

RAXIMOVA SHAHODAT AZADOVNA

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA O‘QUVCHILARNING RIVOJLANISH DARAJALARINI TASHXISLASH-BAHOLASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH TIZIMI

13.00.01– Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UO‘K: 7.015.31:159.922

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical sciences

Raximova Shahodat Azadovna
Bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘quvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash-baholash ko‘nikmalarini shakllantirish tizimi.....3

Рахимова Шаходат Азадовна
Система формирования диагностико- оценочных навыков уровня развития учащихся у будущих учителей …….....25

Rakhimova Shahodat Azadovna
The system of formation the diagnostic and evaluation skills of the development level of students in future teachers....…….....…….....47

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works.....52

OLIY TA’LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01RAQAMLI ILMIY KENGASH

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI

RAXIMOVA SHAHODAT AZADOVNA

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA O‘QUVCHILARNING RIVOJLANISH DARAJALARINI TASHXISLASH-BAHOLASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH TIZIMI

13.00.01– Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2017.2.PhD/Ped165 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) veb-sahifasi (www.bimm.uz) va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Safarova Roxat Gaybillayevna** pedagogika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Yuzlikayev Farid Rafaelovich** pedagogika fanlari doktori, professor
	Djurayev Dusmurod Uralovich pedagogika fanlari doktori, professor.
Yetakchi tashkilot:	**Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “____” _____kuni soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko‘chasi, 3-uy, tel.: (99871) 202-01-20, e-mail: info@bimm.uz).

Dissertatsiya bilan Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko‘chasi, 3-uy, tel.: (99871) 202-01-20, e-mail: info@bimm.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “_____”_____ kuni tarqatildi.

(2026-yil “____” _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

U.Sh.Begimkulov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

A.S. Djurayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, p.f.d. (DSc), dotsent

Ya.U.Ismadiyarov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini shakllantirish, ularning o‘quv yutuqlarini baholashga doir kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida ustuvorlik qaratilmoqda. Ayniqsa, pedagogika oliy ta’lim tashkilotlari talabalarini o‘quvchilarning rivojlanish darajalarini diagnostika qilish va baholashga oid kasbiy faoliyatga tayyorlash, bo‘lajak o‘qituvchilarning diagnostika usullari, baholash instrumentlari, test to‘plash va shu ma’lumotlar asosida o‘qitishni tartibga solish kompetensiyalarini rivojlantirish muhim dolzarblik kasb etmoqda. AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Singapur, Yaponiya, Finlandiya, Rossiya federatsiyasi kabi rivojlangan davlatlarda inklyuziya, bolaning individual, ya’ni o‘qish, til muammolari, alohida ta’lim ehtiyojlarini aniqlash, muvaffaqiyatli diagnostika qilishi uchun o‘qituvchining fan bo‘yicha bilimlari va o‘quv jarayonini prognozlash qobiliyati, portfoliolar, pedagogik kontentlar yaratishga maqsadli tayyorlashga doir qator loyiha va dasturlar amalga oshirilmoqda.

Dunyoning rivojlangan ilmiy tadqiqot va oliy ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish va rivojlanish darajalarini baholash metodikalarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. O‘quvchilarning rivojlanish darajalarini diagnostika qilish va baholashda dunyodagi eng ilg’or va yetakchi baholash sistemalaridan OECDning PISA dasturi asosida o‘quvchilarning rivojlanish darajalarini xalqaro mezonlariga oid tadqiqotlarga alohida o‘rin ajratilgan. Ta’lim siyosati va metodik yondashuvlar, OECD o‘qituvchilarni baholash va baholash tizimlari bo‘yicha tavsiyalar, davlatlararo sonitoring va siyosiy tahlilar, Avstraliya ta’lim agentliklari tadqiqotlari, AQShdagi National Academy of Education va universitetlardagi klinik tadqiqotlar, ulardagi PSTlarning diagnostika jarayonlari, videosimulyatsiyalar va performans baholashga oid tadqiqotlar shular jumlasidandir.

Respublikamizda ham jahon tajribasida o‘zini oqlagan metodikalardan foydalangan holda o‘quvchilarning o‘zlashtirish va rivojlanish darajalarini kompleks tarzda o‘rganishning pedagogik yo‘nalishlarini aniqlashga ustuvorlik berilmoqda. “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yagona yondashuv asosida tubdan takomillashtirish, mazkur yo‘nalishda oliy ta’lim dasturlarini xalqaro tajriba asosida transformatsiya qilish, shuningdek, ta’lim sohasida uzviylik va uzluksizlikni hamda ilm-fan va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash”[1] muhim ustuvorlik kasb etmoqda. Bu esa, bo‘lajak o‘qituvchilarning diagnostik-baholash kompetentligi, kasbiy tayyorgarligini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari va baholash-nazorat mexanizmlarining funksional vazifalarini ishlab chiqish, bo‘lajak o‘qituvchilarda ta’lim oluvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash-baholash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik modeli, diagnostik strategiyalari, raqamli va interaktiv pedagogik texnologiyalari, formativ baholash vositalarinni takomillashtirishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi PF-73-son “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2025 y., 06/25/73/0389-son.

mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2022-yil 11-maydagi PF-134-son “2022-2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risidagi”, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi” to‘g‘risidagi farmonlari, 2020-yil 27 fevraldagi PQ-4623-son “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi 997-son “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda mavzuga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimiz olimlaridan J.Yo‘ldoshev, R.Djurayev, X.Ibraimov, R.Safarova, B.Abdullaeva, N.Muslimov, B.Ma’murov, Sh.Sharipov, M.Urazova, H.Abdukarimov, O.Haydarova, G.Hasanovaning ishlarida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash, ularning tashxislash va baholash ko‘nikmalarini shakllantirish, pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlarini didaktik jihatdan asoslash masalalari tadqiq etilgan. Tashxislash ko‘nikmasining psixologik jihatlari, o‘quvchining ruhiy-fiziologik o‘ziga xosliklari E.G‘oziev, R.Toshimov, R.Qodirov, K.Qodirovlarning ishlarida yoritilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlari S.Bogdanova, I.Glinskaya, T.Panina, M.Potashnik, N.Rojdestvenskaya, P.Xudominskiy, P.Kopnin, K.Tarasov, Ye.Vorobevalarning ishlarida tashxislash va baholash ko‘nikmasining falsafiy-metodologik qirralari o‘z ifodasini topgan. Psixodiagnostika muammolari A.Leontev, A.Zaporojets, D.Elkonin, P..Galperin, N.Podyakov, L.Venger, M.Akimova, Ye.Borisova, Ye.Gorbacheva, T.Kudryavsevlar, o‘quv jarayoni, o‘quvchining rivojlanish darajasini tashxislash muammolari A.Belkin, B.Bitinas, K.Ingekamp, A.Kochetovalar tomonidan tadqiq etilgan. I.Nikishina, M.Shilova, G.Abdraxmanovalar o‘qituvchi va o‘quvchi shaxsi tashxisi va tashxislashning vazifalariga oid muamolarni o‘rganganlar.

Xorijlik olimlar B.Myunsterberg, D.Xolland, D.Syuperlar, A.G.Maslou, L.Zondi, A.Bandura, Dj.Rotterlar ishlari o‘quvchilarni rivojlanishlarii pedagogik-psixologik xususiyatlari haqida tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Biroq oliy pedagogik ta’limda talabalarning tashxislash va baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonida formativ baholash texnologiyalari, raqamli pedagogik diagnostikalari hamda baholashning ishonchliligini ta’minlovchi metakognitiv kompetentsiyalarni shakllantirish imkoniyatlarini takomillashtirish, tashxislash va baholash ko‘nikmalarini shakllantirishning metodik ta’minotini

rivojlantiruvchi yaxlit ilmiy-metodik tizimini ishlab chiqish kabi masalalar maxsus tadqiq etilmagan. Ana shu sababli bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘quvchilarning rivojlanish darajalarini diagnostika qilish va baholash ko‘nikmalarini shakllantirish yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borish lozim, degan xulosaga kelindi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Tarbiya pedagogikasi milliy instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining Ф3-2016-0909111822. “Darslik va o‘quv adabiyotlari mazmuniga Sharq pedagogik tafakkuri durdonalarini singdirish orqali o‘quvchilarda “ommaviy madaniyat”ga qarshi kurashchanlik ko‘nikmalarini shakllantirish mexanizmlari” (2017-2020-yy.) fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘quvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash-baholash ko‘nikmalarini shakllantirish tizimini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo‘lajak o‘qituvchilarning diagnostik-baholash kompetentligi, kasbiy tayyorgarligini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari va funksional vazifalarini aniqlashtirish;

bo‘lajak o‘qituvchilarda ta’lim oluvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash-baholash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik modelini takomillashtirish;

bo‘lajak o‘qituvchilarning tashxislash va baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonida metakognitiv kompetentsiyalarni shakllantirishning nazariy-pedagogik imkoniyatlarini takomillashtirish;

bo‘lajak o‘qituvchilarning tashxislash va baholash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish.

Tadqiqot obyekti sifatida bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘quvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash-baholash ko‘nikmalarini shakllantirish jarayoni tanlangan bo‘lib, tajriba-sinov ishlarida O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, Urganch davlat universiteti va Buxoro davlat universitetining boshlang‘ich ta’lim, pedagogika-psixologiya fakultetlarining 410 nafar 2-4-kurs talabalari ishtirok etishdi.

Tadqiqot predmetini bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘quvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash-baholash ko‘nikmalarini shakllantirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda kuzatish, qiyosiy tahlil, suhbat, anketa, savol-javob, ijtimoiy so‘rov, pedagogik eksperiment, matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo‘lajak o‘qituvchilarning diagnostik-baholash kompetentligini kasbiy tayyorgarlikning integrativ komponenti sifatida shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari aksiologik, me’yoriy va protsessual-texnologik uyg‘unlikni ta’minlovchi nazariy-metodologik ramkani ishlab chiqish va baholash-nazorat mexanizmlarining funksional vazifalarini validatsiya qilish asosida aniqlashtirilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarda ta’lim oluvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash-baholash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik modeli kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan va tizimli-faoliyat yondashuvlar asosida baholashning prognostik vazifalarini kuchaytirishga xizmat qiluvchi diagnostik strategiyalar, raqamli va interaktiv pedagogik texnologiyalar, formativ baholash vositalari hamda data-driven monitoring mexanizmlarini integratsiyalash orqali takomillashtirilgan;

oliy pedagogik ta’limda talabalarning tashxislash va baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayoni ta’lim mazmuniga evidence-based ta’lim, formativ baholash texnologiyalari, data-driven monitoring, raqamli pedagogik diagnostika, adaptiv o‘qitish tizimlari va refleksiv-analitik faoliyat elementlarini kiritish orqali baholashning validligi va ishonchliligini ta’minlovchi metakognitiv kompetentsiyalarni shakllantirishga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

tashxislash va baholash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik tizimi zamonaviy pedagogik paradigmalarning konvergensiyasi asosida refleksiv tahlil, pedagogik qaror qabul qilishning algoritmik madaniyati, individual ta’lim trayektoriyalarini loyihalash va multimodal diagnostika kompetentsiyalarni rivojlantiruvchi raqamli didaktikaga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Xorijiy til (Ingliz tili): Navigating the Digital Horizon” nomli darslik chop etilgan;

“Bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘quvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash-baholash ko‘nikmalarining shakllantirish mexanizmlari” nomli metodik qo‘llanma chop etilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘quvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash va baholash ko‘nikmalarining shakllanganligini aniqlash instrumentariysi ishlab chiqilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘quvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash va baholash ko‘nikmalarining shakllantirishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo‘llanilgan metod va usullarning ilmiy jihatdan asoslanganligi, nazariy ma’lumotlar qiyosiy tahlil etilganligi, tajriba-sinov ishlari samaradorlik darajasi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘quvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash-baholash ko‘nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari aksiologik, me’yoriy va protsessual-texnologik uyg‘unlikni ta’minlovchi nazariy-metodologik ramkani ishlab chiqish va baholash-nazorat mexanizmlarining funksional vazifalarini validatsiya qilish asosida aniqlashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning natijalarining amaliy ahamiyati esa bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘quvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash va baholash ko‘nikmalarini

shakllantirishda diagnostik strategiyalar, raqamli va interaktiv pedagogik texnologiyalar, formativ baholash vositalari qo‘llanilganligi, baholashning prognostik vazifalarini kuchaytirishga xizmat qiluvchi pedagogik jarayon modelida individual ta’lim trayektoriyalarini loyihalash va multimodal diagnostikani, data-driven monitoring mexanizmlarini amalga oshirilganligi, talabalarda tashxislash va baholash ko‘nikmalarining shakllanganlik darajasini aniqlovchi mezonlarning ishlab chiqilganligi, tashxislash va baholashga oid atamalarning ishlab chiqilganligi va joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘quvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash va baholash ko‘nikmalarini shakllantirishga doir tadqiqot natijalari asosida:

bo‘lajak o‘qituvchilarning diagnostik-baholash kompetentligini kasbiy tayyorgarlikning integrativ komponenti sifatida shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aksiologik, me’yoriy va protsessual-texnologik uyg‘unlikni ta’minlovchi nazariy-metodologik ramkani ishlab chiqish va baholash-nazorat mexanizmlarining funksional vazifalarini validatsiya qilishga oid tavsiyalardan 2017-2020 yillarda bajarilgan ФЗ-2016-0909111822-sonli “Darslik va o‘quv adabiyotlari mazmuniga Sharq pedagogik tafakkuri durdonalarini singdirish orqali o‘quvchilarda “ommaviy madaniyat”ga qarshi kurashchanlik ko‘nikmalarini shakllantirish mexanizmlari” mavzusidagi fundamental loyihani bajarishda foydalanilgan. *(Oliy ta’limni rivojlantirish va global hamkorlik markazining 2026-yil 8-iyundagi 02/01-01-497-son ma’lumotnomasi).* Natijada bo‘lajak o‘qituvchilarada o‘quvchining rivojlanish darajasini tashxislash va baholash ko‘nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari me’yoriy va protsessual-texnologik uyg‘unlikni ta’minlovchi diagnostik yondashuvlarni samarali qo‘llashga oid metodik ma’lumotlar bilan boyitilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarda ta’lim oluvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash-baholash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik modelini kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan va tizimli-faoliyat yondashuvlar asosida baholashning prognostik vazifalarini kuchaytirishga xizmat qiluvchi diagnostik strategiyalar, raqamli va interaktiv pedagogik texnologiyalar, formativ baholash vositalari hamda data-driven monitoring mexanizmlarini integratsiyalash orqali takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalardan “Xorijiy til (Ingliz tili): Navigating the Digital Horizon” nomli darslik mazmuniga singdirilgan *(Oliy ta’limni rivojlantirish va global hamkorlik markazining 2026-yil 8-iyundagi 02/01-01-497-son ma’lumotnomasi).* Natijada bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘quvchilarnining rivojlanish darajalarini tashxislash va baholash ko‘nikmlarini rivojlantirishga oid kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan va tizimli-faoliyat yondashuvlar asosida baholashning prognostik vazifalarini kuchaytirish imkoniyatlari kengaytirilgan;

oliy pedagogik ta’limda talabalarning tashxislash va baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayoni ta’lim mazmuniga evidence-based ta’lim, formativ baholash texnologiyalari, data-driven monitoring, raqamli pedagogik diagnostika, adaptiv o‘qitish tizimlari va refleksiv-analitik faoliyat elementlarini kiritish orqali baholashning validligi va ishonchliligini ta’minlovchi metakognitiv kompetensiyalarni shakllantirishga doir taklif va tavsiyalardan “Bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘quvchilarning

rivojlanish darajalarini tashxislash-baholash ko‘nikmalarini shakllantirish mexanizmlari” nomli metodik qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan *(Oliy ta’limni rivojlantirish va global hamkorlik markazining 2026-yil 8-iyundagi 02/01-01-497-son ma’lumotnomasi)*. Natijada, bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘quvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash va baholashda evidence-based ta’lim, formativ baholash texnologiyalari, data-driven monitoring, raqamli pedagogik diagnostika, adaptiv o‘qitish tizimlari va refleksiv-analitik faoliyati oliy ta’lim jarayoniga tadbiq etildi;

tashxislash va baholash ko‘nikmalarini shakllantirishning metodik ta’minoti zamonaviy pedagogik paradigmalarning konvergensiyasi asosida refleksiv tahlil, pedagogik qaror qabul qilishning algoritmik madaniyati, individual ta’lim trayektoriyalarini loyihalash va multimodal diagnostika kompetentsiyalarni rivojlantiruvchi raqamli didaktikaga ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasi “Madaniyat va ma’rifat” telekanili “Agar” ko‘rsatuvini tayyorlashda foydalanilgan *(O‘zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasining 2026-yil 6-apreldagi 1520/228-sonli ma’lumotnomasi)*. Natijada oliy pedagogik ta’limda bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayoni individual ta’lim trayektoriyalarini loyihalash va multimodal diagnostika kompetentsiyalarni rivojlantirishga oid tajribalar OAV orqali ommalashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy-uslubiy ish chop etilgan. Shulardan 1 ta darslik, 1 ta metodik qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola: 4 ta respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 151 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida tadqiqotning dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti aniqlangan, ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e’lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘quvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash-baholash ko‘nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari”** nomli birinchi bobida o‘quvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash va baholashga oid yondashuvlar, bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘quvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash va baholash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik yo‘nalishlari haqida fikr yuritilgan.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni umumiy o‘rta ta’lim jarayonlarida ta’lim oluvchilarning rivojlanish darajalarini baholash va tashxislash ko‘nikmasiga, tajribasiga ega qilib tayyorlash oliy pedagogik ta’lim oldiga qo‘yilgan dolzarb masalalardandir. Bo‘lajak o‘qituvchi kasbiy faoliyatining tarkibiy qismini o‘quvchilar bilimini baholash va ularning rivojlanish darajalarini tashxislash tashkil etadi. Tashxislash o‘z ichiga didaktik jarayonning amalga oshishini qamrab oladi, uning natijalarini oydinlashtirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda o‘qituvchi faoliyatiga nisbatan yangicha nuqtai nazarda qarash tajribasi vujudga kelmoqda. Xuddi mana shundan kelib chiqqan holda zamonaviy o‘qituvchining bir qator muhim vazifalari belgilab berilishi kerak:

a) O‘quvchilarni mustaqil bilish faoliyatiga jalb etish uchun qulay sharoit yaratish;

b) O‘quvchilarning harakatlarini qo‘yilgan maqsad sari yo‘naltirish;

v) Mustaqil ishlash jarayonida o‘quvchilarning his-tuyg‘ulari va kechinmalarini qo‘llab-quvvatlash;

g) Har bir o‘quvchi uchun muvaffaqiyat vaziyatini vujudga keltirish;

d) O‘quv-tarbiya jarayonida umumiy ijobiy-hissiy holatni saqlab qolish;

e) O‘quvchilar bilan hamkorlikda qo‘lga kiritilgan natijalarni ekspertizadan o‘tkazish kabilar.

O‘quvchilarning o‘zlashtirish darajalarini nazorat qilish jarayoni bir qator ko‘rinishlarga ega. Nazorat deganda, faoliyat va uning natijalari haqida axborot olish tartibi tushuniladi. Ushbu tadbir teskari aloqani ham ta’minlaydi. Amalga oshiriladigan nazorat turlari quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin. Ular:

1. Og‘zaki nazorat – bunga yakka va ommaviy tarzdagi so‘rovlar misol bo‘la oladi. To‘g‘ri javoblar o‘qituvchi tomonidan aniqlanib, sharhlanadi. Nazorat yakunida o‘quvchiga baho qo‘yiladi.

2. Yozma nazorat – bunday nazorat ishlari yozma xarakterga ega bo‘lib, diktantlar, muloqot matnlari, insholar, bayonlar, yozma yakuniy nazorat ishlari kabi shakllarda amalga oshiriladi. Mazkur nazorat ishlari qisqa va uzoq muddatli bo‘lib, ular bir-biridan tashxislashning chuqurligi, yuzaki yoki asoslangan qismlarning izohi bilan farqlanadi.

3. Laboratoriya nazorati – mazkur usul o‘quvchilarning kompyuterda ishlash ko‘nikmalarini aniqlashga yo‘naltirilgan. Dasturlashtirilgan bilimlarning o‘zlashtirilishini ta’minlash imkonini beradi. Mazkur bilimlar yordamida o‘quvchilar darslarda modellashtirish, dasturlarga tuzatishlar kiritish ko‘nikmalarini namoyon etadilar.

4. Dasturlashtirilgan nazorat – u nazorat qiluvchi dasturlar yordamida amalga oshiriladi. Bu usul yordamidagi nazorat ishlari o‘quv predmetini o‘zlashtirishning barcha bosqichlarida amalga oshirilishi mumkin. Mazkur usul yuqori darajadagi obyektivlikni ta’minlash imkonini berib, uning yordamida nazorat vositalarini savodlilik hamda sobitqadamlilik bilan yaratish mumkin.

5. Test nazorati – uning asosini testlar tashkil etadi. Test nazoratlari kompyuterlar yordamida va qog‘oz variantlarida yozma shakllarda amalga oshirilishi mumkin.

6. Mustaqil nazorat – bunda o‘quvchini o‘z xatolari, ishidagi noaniqliklarni mustaqil topishga undash imkoniyati vujudga keladi.

Mazkur usullar, ularni qo‘llash yo‘llari, bu jarayonda qo‘llaniladigan vositalar bilan bo‘lajak o‘qituvchilar oliy pedagogik ta’lim muassasalaridayoq tanishtirilishlari va ulardan foydalanishga oid dastlabki tajribalar bilan qurollantirilishlari lozim.

O‘qituvchining baholash funksiyasi bilan bog‘liq muammolar uchta muhim masalaning yechimi bilan bevosita bog‘liqdir. Ular:

1. O‘quvchilarning o‘quv muavaffaqiyatlarini qanday maqsadga asoslangan holda baholash?


2. O‘quvchilarning bilish faoliyatlarida, birinchi navbatda, nimani baholash zarurligini anglash?

3. Bahoning ob’yektivligini ta’minlash bilan bog‘liq ijobiy holatlar nimalardan iboratligini bilish?

O‘quvchilarning rivojlanish darajalarini nazorat qilish mexanizmlari tarkibida o‘z-o‘zini tashxislash va baholashga ham alohida o‘rin ajratiladi. O‘z-o‘zini nazorat tashxislash va nazorat qilish tadbirlari talabalarning kasbiy kompetensiyalarini egallashlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Baholash va belgilash tushunchalari garchand bir-biriga yaqin bo‘lsada ularning har biri o‘zining didaktik xususiyatlariga ega.

O‘quvchilarning rivojlanish darajalarini nazorat qilish natijalari ularning bahosida o‘z ifodasini topadi. Baho o‘quvchilarning o‘zlashtirish va rivojlanish darajalarini aniqlashga xizmat qiladi. Shuning uchun ham bo‘lajak o‘qituvchilardan baholash metodikasini puxta o‘zlashtirishlari talab etildi.

Mavjud ilmiy yondashuvlarni umumlashtirish natijasida bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy rivojlanishiga qo‘yilayotgan ijtimoiy-pedagogik talablarni quyidagicha belgiladik (1-rasm).




1-rasm. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanish jarayoni

O‘qituvchilar o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajalarini baholashda muayyan prinsiplarga tayanadilar. Buning uchun pedagogik oliy o‘quv yurtlaridayoq ushbu prinsiplar bilan yaqindan tanishishlari, amaliy faoliyatda ularga tayanish tajribasiga ega bo‘lishlari talab etiladi.

O‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilimlari va ko‘nikmalarini tashxislash, nazorat qilish, tekshirish va baholash muayyan mantiqiy izchillik asosida amalga oshiriladi. Ularni o‘rganish ham o‘ziga xos tarzda amalga oshiriladi.

O‘quvchilarning rivojlanish darajalari ularning hatti-harakatlari bilan bog‘liq holda tashxislanishi va baholanishi lozim. O‘quvchilarning rivojlanish darajalarini ular orasidagi ziddiyatlar vaziyatlarni tahlil qilish orqali ham aniqlash nazarda tutiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘quvchilarning topshiriqlarni mustaqil bajara olish layoqatiga alohida e’tibor qaratishlari talab etiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘quvchilarning rivojlanish darajalarin tashxislash va baholashda ularning topshiriqlarni bajarishga oid ko‘nikmalari va hatti-haraktlariga ham alohida e’tibor qaratishlari zarur. Biz quyida bugungi zamonaviy baholash tizimi asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘quvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash va baholash ko‘nnikmlarini shakllantirish texnologiyasini taqdim etamiz (2-rasm).




2-rasm. Bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘quvchilarning rivojlanish darajalarini to‘g’ri baholash va tashxislash ko‘nikmlarini rivojlantirish texnologiyasi

Shu o‘rinda IQ testlarni haqida izoh bersak. Aql-idrok shaxsning turli aqliy faoliyatni amalga oshirish, muammolarni hal qilish, ma’lumotni o‘rganish va undan foydalanish qobiliyati sifatida tavsiflanadi. Ushbu murakkab jarayon darajalarini o‘lchash va baholash maqsadida IQ (Intelligence Quotient ya’ni aqliy daraja) testlari odamlarning aqlan rivojlanganlik darajasini aniqlash uchun keng qo‘llanilayotgan test texnologiyasidir. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim muassasalari o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash, baholash va tashxislashda IQ testlaridan foydalanish mumkin. Lekin IQ testlarni standart shaklini emas induviduallashtirilgan ya’ni o‘quvchi qiziqishlarini, kognitiv imkoniyatlarini hisobga olgan holda tuzilgan shakllarini qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi va o‘quvchilarni aqliy darajalarini aniqlashdagi tengsizliklar bartaraf etiladi.

O‘rganish, tashxislash va baholash bosqichlari orasida muayyan uzviylik va uzluksizlik ta’minlanishi lozim. Chunonchi: tekshirish tizimida o‘quvchilarning bilim darajalarini oldindan aniqlash tadbiri amalga oshiriladi; o‘rganilayotgan har bir mavzu yakunida, yangi mavzuni o‘tishdan oldin joriy tekshirish amalga oshiriladi; takroriy tekshirish ham joriy nazorat kabi muayyan mavzularni o‘rganish doirasida amalga oshiriladi; davriy tekshirish bosqichida o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma, malakalari o‘quv dasturidagi muayyan mavzu yoki o‘quv kursi bo‘limlarini o‘rganish jarayonida amalga oshiriladi; yakuniy tekshirish va o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilimlari va ko‘nikmalarini hisobga olish bosqichida ularning didaktik jarayonning barcha bosqichlarida o‘rgangan bilim, ko‘nikma, malakalari, ular orasidagi uzviylik va izchillik hisobga olinadi. Yakuniy tekshirish har bir o‘quv choragi va o‘quv yili yakunida amalga oshiriladi.

Dissertatsiyaning **“Bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘quvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash-baholash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik tizimi”** deb nomlangan ikkinchi bobida bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘quvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash-baholash ko‘nikmalarini shakllantirish mazmuni hamda mazkur ko‘nikmalarni shakllantirishning samarali shakllari, vositalari, usullari, metodlari va texnologiyalari bayon qilingan. Tashxislash jarayonlari bosqichma-bosqich va uzviylik asosida amalga oshirish jarayonni quyidagi rasmda keltirdik (3-rasm).



3-rasm. O‘quvchilarning o‘zlashtirish va rivojlanish darajalarini tashxislashning bosqichlari

Biz o‘z tadqiqotimiz davomida innovatsion o‘qitish metodlari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘quvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash-baholash ko‘nikmalarini shakllantirish ularning o‘ziga xosligini ifodalovchi, ko‘nikmalarda namoyon bo‘luvchi, moddiy borliqni pedagogik tadqiqot ob’yekt sifatida anglashlarini ta’minlovchi, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim paradigmasini o‘zlarining ijodiy quvvatlarini namoyon qilish imkoniyati sifatida tushunish, kasbiy-shaxsiy refleksiyalarini


rivojlantiruvchi, pedagogik hamkorlik jarayonining barcha ishtirokchilari uchun xulq-atvor modelini belgilovchi pedagogik hodisa ekanligini asoslashga intildik.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda yetakchi pedagogik faoliyat sifatida o‘quvchilarning o‘zlashtirish va rivojlanish darajalarini nazorat qilish funksiyasi shakllantiriladi. Tashxislashning o‘ziga xos jihati o‘quvchilarning rivojlanish darajalarini aniqlashga xizmat qiladigan turli usullar va metodalrni qo‘llashdan iborat. Testlar yordamida tashxislash, tekshirish va baholashning obyektivligi ta’minlanadi. Chunki testlar ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish va rivojlanish darajalarini tashxislashda alohida imkoniyatlarga ega. Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘quvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislashga xizmat qiladigan testlarni tuzish va ulardan foydalanishda quyidagi talablarga rioya qilishlari lozim:

- testlarning ishonchliligini ta’minlash;
- testlarning validligiga erishish;
- testlarning obyektivligini ta’minlash.

Yangi kiritilgan innovatsiyalar bugungi kunda o‘qituvchi faoliyati uchun alohida ahamiyatga ega. Shuning uchun ham, bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsiyalarga oid bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish uchun ularning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish talab etiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajalarini yozma va og‘zaki shakllarda aniqlash metodikasini ham puxta o‘zlashtirishlari talab etiladi. Biz quyidagi rasmda o‘quvchilarning o‘zlashtirish va rivojlanish darajalarini baholash tizimini tavsifladik (4-rasm)



4-rasm. O‘quvchilarning o‘zlashtirish va rivojlanish darajalarini samarali baholash tizimi

Baho – ta’lim tizimida o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishlari, axloqi yoki ma’lum yutuqqa erishish darajasini hisobga olgan holda qo‘yiladigan ball. Baho –

ijtimoiy hodisalar, inson faoliyati, xulqiga bo‘lgan munosat, ularning ahamiyati, muayyan axloq me’yorlari va tamoyillariga mosligini belgilovchi daraja hisoblanadi. Insonning ijtimoiy mavqei dunyoqarashi, madaniy saviyasi, aqliy va axloqiy kamolotini ham ifodalaydi. Boshqa tomondan esa, bajarilgan harakat sabablari, vositalari, maqsadlari, uning qanday sharoitda bajarilganligi, shaxs xulqidagi o‘rnini hisobga olish unga to‘g‘ri baho berishning zarur shartidir.

O‘quvchilarning o‘zlashtirish darajalari bilan birga ularning xulq-atvori va bilish imkoniyatlari ham kompleks tarzda baholanadi. Bunda o‘quvchilarni sinfdan-sinfga o‘tkazish ularning erishgan muvaffaqiyatlari va rivojlanish darajalarini hisobga olish asosida amalga oshiriladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘quvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash-baholash ko‘nikmalarini shakllantirishshda innovatsion o‘qitish metodlari xususan, talabalar o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etishning samarali shakl, metod va vositalari muhim ahamiyatga ega. Darhaqiqat, bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘quvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash-baholash ko‘nikmalari shaxs ijodkorligini shakllantirishning asosi bo‘lib, uzoq muddatli murakkab jarayon hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, o‘qituvchi shaxsida o‘quvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash-baholash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun belgilangan maqsadga ko‘ra, uning mazmunini o‘zlashtirish imkonini beruvchi samarali shakl, metod va vositalarning tanlanilishini talab qiladi.


Innovatsion ish shakllariga quyidagilarni kiritish mumkin: “Juftliklarda ishlash”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “O‘zaro o‘rin almashadigan uchlikda ishlash”, “Karusel”, “Akvarium”, “Tugallanmagan gap”, “Aqliy hujum”, “Broun usulida harakatlanish”, “Yechimlar daraxti”, “O‘z nomidan hukm chiqarish”, “Fuqarolik tinglovi”, “Rolli, ishchan o‘yinlar”, “Munozara”, “Ob’yektiv debat” kabilar. Professor-o‘qituvchilar tomonidan innovatsiyalarning bir qator shakllari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilmoqda. “Katta doira bo‘ylab”, “Charxpalak”, “Akvarium”, “Aqliy hujum”, “Debat” kabi usullar shular jumlasidandir. Darsda muayyan muammolar muhokama qilingandagina mazkur usul va metodlar kutilgan samaradorlikka erishish imkonini beradi. Biz tadqiqot doirasida bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘quvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash-baholash ko‘nikmalarini shakllantirish bosqichlarini quyidagicha ifodaladik:

1. Reproduktiv-tavakkalchilik bosqichi. Bu bosqich bo‘lajak o‘qituvchilarda ijodiy faoliyat, ijodiy faollik va ijodkorlikka bo‘lgan moyillikni qaror toptirish, ta’limdagi innovatsiyalarning mohiyatini anglash va yangi g‘oyalarning tug‘ilishi, shakllanishi bilan tavsiflanadi.

2. Ijodiy-izlanish tadqiqotchilik bosqichi. Bo‘lajak o‘qituvchilardagi tadqiqotchilik, ijodiy faollik, nostandart tafakkur, bilish mustaqilligi, improvizatsiya, yangilik yaratish ko‘nikmalarining shakllanishi bilan belgilanadi.

3. Novatorlik bosqichi. Yaratilgan yangilikni amalda qo‘llash, baholash, tahlil qilish, ommalashtirish va uni keng tatbiq etish hamda istiqbolga yo‘naltirilgan strategik rejalarni tuzish bilan bog‘liq jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

Biz quyida bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘quvchilarning rivojlanish darajalarini baholash-tashxislash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon modelini taqdim qilamiz. (5-rasm)



5-rasm. Bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘quvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash-baholash ko‘nikmalarini shakllantirish modeli

Dissertatsiyaning **“Bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘quvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash-baholash ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan tajriba-sinov ishlari mazmuni”** deb nomlangan uchinchi bobida bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘quvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash-baholash ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan tajriba-sinov ishlari hamda mazkur tajriba-sinov ishlarining samaradorligi va statistik tahlili xususida fikr yuritilgan. Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda o‘tkazilib, Urganch Davlat universiteti, Buxoro Davlat universiteti hamda Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti tajriba-sinov maydoni sifatida belgilab olindi, anketa so‘rovlari, ma’ruza va seminar mashg‘ulotlari tashkil etildi. Mazkur ta’lim muassasalarining “Boshlang‘ich ta’lim”, “Pedagogika-psixologiya” fakultetlarining 410 nafar 2-4-kurs talabalari va professor-o‘qituvchilari respondentlar sifatida tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan.

Ushbu vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun innovatsion pedagogik jarayonda bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘quvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash-baholash ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan tajriba-sinov ishlari quyidagi yo‘nalishlarda tashkillashtirildi:

1. Bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘quvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash-baholash ko‘nikmalarining shakllannganlik darajasi o‘rganildi.

2. Tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan respondent-talabalarning o‘quvchilarning rivojlanish darajalarini tashxislash-baholash faoliyati mazmunidan xabardorlik darajalari aniqlandi.
